

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 47 (1108), 2024-yil 6-mart, chorshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

TOSHKENT SHAHRIDA QAD ROSTLAYOTGAN ZAMONAVIY INSHOOTLAR
AHOLI FAROVONLIGI VA IQTISODIYOT RIVOJIGA XIZMAT QILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 5-mart kuni Toshkent shahrida sport ta’limi, savdo va xizmat ko‘rsatish sohasidagi yangi zamonaviy obyektlar, ekologik vaziyatni yaxshilash bo‘yicha amalga oshirilayotgan loyihalar bilan tanishdi.



Davlatimiz rahbari dastlab Toshkent shahrida barpo etilgan Bahodir Jalolov ixtisoslashtirilgan boks sport maktabini borib ko‘rdi.

Olimpiada va Osiyo o‘yinlari g‘olibi, ikki karra jahon va uch karra Osiyo chempioni Bahodir Jalolov O‘zbekiston sportining bayroqdori hisoblanadi. U keyingi yillarda professional boksda ham muvaffaqiyatli qatnashib kelmoqda.

Yurtimizda bunday chempionlar faoliyatini targ‘ib qilish, ularning namunasida yosh sportchilarni tarbiyalashga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Davlatimiz rahbarining 2022-yil 14-martdagi qaroriga muvofiq, shunday yana bir maskan — Boks bo‘yicha Bahodir Jalolov sport mahorati maktabi tashkil etildi.

Bu yerda xalqaro darajadagi bokschilarni tayyorlash, buning uchun yuqori malakali murabbiy va mutaxassislarni jalb etish, o‘quv-mashg‘ulotlarni xalqaro standartlar darajasida tashkil qilish hamda ilg‘or tajribalar asosida uning sifatini oshirib borish yo‘lga qo‘yilmoqda.

To‘rt qavatli zamonaviy binoda buning uchun barcha sharoit yaratilgan. Birinchi qavatda asosiy sport zali, suzish havzasi, tibbiyot xonasi va oshxona bor. Ikkinchi qavatda psixologiya, xorijiy tillar, nazariy mashg‘ulotlar, informatika va o‘qituvchilar xonalari, shuningdek, 45 o‘rinli mehmonxona joylashgan. Uchinchi va to‘rtinchi qavatlarda 235 o‘rinli yotoqxona, ma’naviyat xonasi

tashkil etilgan. Shuningdek, bino yerto‘lasida avtoturargoh qurilgan.

Boks maktabi 175 o‘ringa mo‘ljallangan bo‘lib, 5-11-sinflarga har yili 25 nafardan o‘quvchi saralab olinadi. Ilk iqtidorlar 2022-yilgi o‘quv yilida qabul qilingan va bugungi kunda 50 nafar o‘quvchi saboq olmoqda. Ular butun mamlakatimizdan kelgan talabgorlar orasidan saralab olingan.

Bahodir Jalolov maktabi o‘quvchilari 2023-yilda xalqaro va respublika musobaqalarida 26 ta oltin, 18 ta kumush, 15 ta bronza medalni qo‘lga kiritgan. Bu yil ham qator tumirlarda ishtirok etish rejalashtirilgan.

Maktab butun mamlakatimiz yosh bokschilari uchun o‘quv-mashg‘ulot bazasi bo‘ladi. Yosh istiqbolli bokschilarni tanlash va tarbiyalash bo‘yicha boshqa sport maktablari va markazlari bilan hamkorlik qilib boradi.

Shu bois, maktabda yosh sportchilar, soha mutasaddilari bilan muloqot bo‘ldi. Muloqotga videoaloqa orqali hududlar ham ulandi.

— Biz bu yilni Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili, deb e‘lon qildik. Har doim ham bu masalaga alohida e‘tibor qaratib, yoshlarga kerakli sharoitlarni yarataymiz. Ularning salohiyati, intilishi kuchli. Boks bo‘yicha dunyoda yetakchilar qatoridamiz. Bu salohiyatni, iqtidorli yoshlarimizni rivojlantirish maqsadida shu maktabni tashkil etdik. Endi Bahodir Jalolov maktabi o‘z yo‘nalishida xuddi

Prezident maktabidek namunaviy tizim bo‘ladi. Boks metodologiyasi, diyetologiyasi, tibbiyoti, psixologiyasi hududlardagi sport maktablarida ham rivojlantiriladi, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Viloyat hokimlariga sport federatsiyalari bilan hamkorlikni yaxshilash, hududlarda ularning ishiga ko‘maklashish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi. Yoshlar o‘rtasida sportni yanada ommalashtirish, xususan, ularni boksqa jalb etish, buning uchun maktab va to‘garaklarda sharoitlarni kengaytirish zarurligi ta’kidlandi.

Sport gimnastikasi bo‘yicha uch karra jahon chempioni, jahon kubogi sohibi Oksana Chusovitina — mamlakatimiz faxri. U sakkitza Olimpiadada qatnashgan yagona gimnastikachi sifatida Ginnesning rekordlar kitobiga kiritilgan.

Yurtimizda shunday sportchining bo‘lishi bolalar uchun namuna, dalda. Prezidentimizning 2022-yil 14-martdagi Oksana Chusovitina ixtisoslashtirilgan gimnastika sport maktabini tashkil etish to‘g‘risidagi qarori sportsevar yoshlarga katta sharoit yaratdi.

Davlatimiz rahbari ushbu sport maktabiga tashrif buyurib, bu yerdagi sharoitlarni va mashg‘ulotlarni ko‘zdan kechirdi.

Muassasa milliy terma jamoalar uchun xalqaro darajadagi sportchilarni tayyorlash, yuqori malakali murabbiy va mutaxassislarni jalb etib, o‘quv-mashg‘ulot jarayonini

xalqaro standartlar darajasida tashkil qilish, murabbiylar va gimnastikachilar mahoratini muntazam oshirib borishga yo‘naltirilgan. Buning uchun uch qavatli zamonaviy binoda barcha sharoit yaratilgan.

Birinchi qavatda asosiy zal va mashg‘ulotlar zali, trenajyor maydonchasi, tibbiyot xonasi va oshxona joylashgan. Tepa qavatlardan 165 o‘rinli yotoqxona, mehmonxona, informatika va ma’naviyat xonalari o‘rin olgan. Maktab Germaniyadan keltirilgan sport anjomlari va jihozlari bilan ta’minlangan.

Gimnastika maktabi 5-11-sinflardagi 105 nafar o‘quvchiga mo‘ljallangan. Bugungi kunda 91 nafar o‘g‘il-qiz mahoratini oshirmoqda. Ularga ikkita xorijiy til ham o‘rgatiladi.

Chusovitina izdoshlari o‘tgan yili sport gimnastikasi va badiiy gimnastika bo‘yicha xalqaro musobaqalarda 4 ta, respublika tumirlarida 6 ta va sport maktablari o‘rtasida 24 ta medalni qo‘lga kiritgan.

Muhimi shundaki, gimnastikachi yoshlar bir joyning o‘zida yashab, ta’lim olib, mashg‘ulotlar o‘tkazadi. Umuman olganda, bu sport maktabi gimnastikachilar uchun respublikada yagona o‘quv-mashg‘ulot bazasiga aylanadi.

Shu yerda sport sohasi mutasaddilari hamda videoaloqa orqali hududlar rahbarlari ishtirokida muloqot bo‘ldi.

— Nima uchun biz bu yo‘nalishga katta e‘tibor berib, maktablar yarataymiz? Gimnastika — hamma sport turlarining asosi. Futbolchi ham, bokschi ham, sog‘lom bo‘laman degan inson ham gimnastika qilishi kerak. Iqtisodiyotni rivojlantirish, yoshlarga ta’lim berish bilan birga ularni sport bilan shug‘ullantirilsak, yurtimizda sog‘lom zuriyot, sog‘lom millat bo‘ladi, — dedi Prezident.

Ushbu maqsadda gimnastikani bolalar bog‘chalaridan keng joriy qilish, qobiliyatli sportchilarni saralashni shu bosqichdan boshlash, har bir hududda ikkita dan gimnastika maktabi tashkil etish masalalari muhokama qilindi.

Joriy yil Fransiyada bo‘ladigan Olimpiya o‘yinlarida qatnashadigan sportchi va ularning murabbiylariga alohida sharoit yaratish, munosib tayyorgarlik ko‘rishini ta’minlash bo‘yicha mutasaddilarga ko‘rsatmalar berildi.

Shundan so‘ng Prezident Shavkat Mirziyoyev ekologik vaziyatni yaxshilash bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar bilan tanishdi.

So‘nggi vaqtlarda ekologik muammolar, ayniqsa, havo tozaligi keng jamoatchilikni tashvishga solmoqda. Ekologik xavfsizlik talablariga javob bermaydigan avtotransport vositalarining chiqayotgan zararli gazlar va yo‘llardagi tirbandliklar buning asosiy sabablaridan biridir. Shu bois, davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan ekologik vaziyatni yaxshilash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar ko‘rilmoqda.

Jumladan, avtotransport vositalarining zararli tashlanmalari bilan bog‘liq ekologik

muammolarni bartaraf etish maqsadida Toshkent shahri Mirobod tumani Fayzobod mahallasida joylashgan Yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasining ro‘yxatdan o‘tkazish va imtihon olish bo‘limi mutlaqo yangi uslubda ishlovchi zamonaviy diagnostika markaziga aylantirildi.

Davlatimiz rahbari markaz faoliyati bilan tanishdi.

Markaz faoliyatini tashkil etishda Germaniya, Belgiya, Fransiya kabi rivojlangan mamlakatlar shaharlarining ekologik muhitini muhofaza qilish sohasidagi ilg‘or tajriba inobatga olingan.

Bu yerda transport vositalariga davlat raqam belgisi birlashtirish va qayd etish guvohnomasini topshirish jarayoni turli byurokratik to‘siqlar va ovoragarchilikdan xoli qilingan, inson omili minimal darajaga tushirilgan. Avval avtomototransport vositasini ro‘yxatdan o‘tkazish jarayoni olti-yetti bosqichda amalga oshirilgan bo‘lsa, hozirda bosqichlar soni uchtaga qisqardi.

Asosiy, endilikda markazda avtomobilidan chiqayotgan zararli moddalar miqdori tekshiriladi va ekologik tekshiruv natijasidan kelib chiqib, RFID chip o‘rnatilgan “qizil”, “sariq” yoki “yashil” yorliq (stiker) mashinaning old oynasiga yopishtiriladi.

Kelgusida joriy ekologik vaziyatdan kelib chiqib, shahar hududi bir nechta ekologik zonalarga ajratiladi va transport vositalarining havoga chiqarayotgan zararli moddalar darajasiga ko‘ra, ya’ni stiker rangiga qarab, ayrim ekologik zonalarga kirishni bosqichma-bosqich cheklash taklif etilmoqda. Bunda ekologik zonalarga ruxsat etilmagan transport vositalarining kirishi avtomatlashtirilgan holda nazorat qilinadi. Qoidabuzarlik natijasida kelib tushayotgan jarimalar hududning ekologik holatini yaxshilash bo‘yicha chora-tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltiriladi.

Tizim to‘laqlonli ishlashi uchun mamlakat bo‘ylab 100 ga yaqin havoni monitoring qilish avtomatik stansiyalari o‘rnatilishi, transport vositalarining atmosferaga chiqarayotgan zarari darajasini baholash uchun 84 ta ro‘yxatga olish-diaagnostika markazlarini, shuningdek, Yo‘l harakati xavfsizligi xizmatining 216 ta hududiy tuman bo‘linmalarini zamonaviy diagnostika uskunalari bilan jihozlash rejalashtirilmoqda.

O‘znavbatida, aholiuchunektromobillarni xarid qilishni rag‘batlantirish, shu jumladan, bunday toifadagi avtomobillar uchun davlat raqamlarini berishda undiriladigan to‘lov miqdorlarini kamaytirish yuzasidan aniq amaliy choralar ko‘riladi.

Avtotransport vositalarini ro‘yxatga olish va diagnostika markaziga tashrif chog‘ida Prezident Shavkat Mirziyoyevga Toshkent shahridagi gavjum chorahalar va ko‘chalarni tartibga solish, bu orqali tirbandliklarni bartaraf etishga oid loyiha taqdimot qilindi.

Loyiha o‘z oldiga uchta asosiy vazifa qo‘ygan — piyodalar xavfsizligi va qulayligi, jamoat transportiga ustuvorlik, o‘tkazish qobiliyatini oshirish va yo‘l-transport hodisalari sonini kamaytirish.

Mazkur loyiha sinov tariqasida Toshkent shahridagi yirik chorahada — Bobur va Furqat ko‘chalari kesishmasida amalga oshirildi.

Piyodalar uchun chorahalarda “xavfsizlik orolchalari” bunyod etildi, piyodalar o‘tish joyida svetoformi boshqarish uskunalari o‘rnatildi. Jamoat transporti bekatlari yo‘lovchilar uchun tushib-chiqishga qulay tarzda qayta loyihalashtirildi.

Shuningdek, chorahalarga davomiyligi oqimga qarab moslashadigan intellektual svetoforlar tizimi tashkil etildi.

Bu kabi loyihalar natijasida chorahalarning o‘tkazish qobiliyati sezilarli darajada oshib, tirbandliklar kamayadi, jamoat transporti yanada samarali bo‘ladi.

Prezidentimiz bu ishlarni kengaytirish, “shahar — piyodalar uchun” tamoyilini to‘liq ro‘yobga chiqarish bo‘yicha mutasaddilarga tegishli ko‘rsatmalar berdi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev Tashkent City Mall savdo-ko‘ngilochar markaziga ham bordi.

Majmua ko‘p funksiyali bo‘lib, zamonaviy tijorat va xizmat turlarini qamrab olgan. 5 qavatda savdo do‘konlari, restoran va kafelari, ko‘ngilochar o‘yinlar va sport maydonlari joylashgan. Yer ostida 2 qavatli avtoturargoh bor.

Markazda dunyoning eng oldi brendlari shoxobchalarini ochgan. Ular orasida birinchi marta O‘zbekiston bozoriga kirib kelayotganlari ham talaygina.

Ulkan maydonda bolalar va kattalar uchun yopiq o‘yingohlar mavjud. Shuningdek, 14 ta kinoteatr tashkil etilgan. Bir so‘z bilan aytganda, bu yerda odamlar xarid qilishi, dam olishi, sport bilan shug‘ullanib, vaqtini chog‘ o‘tkazishi uchun barcha sharoit yaratilgan.

Majmua bir kunda 60 ming kishiga xizmat ko‘rsatish quvvatiga ega. Unda 3 mingdan ziyod kishi ish bilan ta’minlanadi.

Prezident bu yerga kelgan odamlar bilan suhbatlashdi.

Davlatimiz rahbari mazkur majmuaning bir qismi bo‘lgan besh yulduzli mehmonxonada yaratilayotgan sharoitlar bilan ham tanishdi.

31 qavatli bu mehmonxona bir vaqtning o‘zida 500 kishiga xizmat ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Unda yuqori martabali mehmonlar uchun sharoitlar, 273 ta standart xona tashkil etiladi.

Shuningdek, katta va kichik konferensiya zallari, ochiq va yopiq suzish havzalari, restoran va kafeteriya xizmat ko‘rsatadi. Binoda zamon talabiga mos “Aqli uy” tizimi hamda tezyurar liftlar o‘rnatilgan.

Mehmonxona may oyida ishga tushirilishi rejalashtirilgan. Bu yerda yana 500 kishi doimiy ish o‘rniga ega bo‘ladi.

Xalqimizga zamonaviy xizmatlar taqdim etadigan bunday markazlarni mamlakatimizning boshqa shaharlarida ham barpo etish muhimligi aytiladi.

Ziyodulla JONIBEKOV,
Ikrom AVVALBOYEV,
O‘ZA muxbirlari

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
F A R M O N I8-MART — XALQARO XOTIN-QIZLAR KUNI
MUNOSABATI BILAN MUKOFOTLASH TO‘G‘RISIDA

Mamlakatimizda mo‘tabar ayol zotiga ulkan ehtirom ko‘rsatish, davlat va jamiyat hayotida tutgan o‘rni va nufuzini oshirish, shuningdek, o‘zining samarali mehnati, boy tajribasi bilan yurtimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar jarayonida faol qatnashib, Yangi O‘zbekistonnı barpo etish, xalqimiz farovonligini yuksaltirish yo‘lida tashabbus va ibrat ko‘rsatib kelayotgan, oilalarda ma’naviy-xalqiy muhitni mustahkamlash, yoshlarimizni ona Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlariga hurmat ruhida tarbiyalashga katta hissa qo‘shayotgan xotin-qizlarni munosib taqdirlash maqsadida quyidagilar mukofotlansin:

“Mehnat shuhrati” ordeni bilan

Annaklicheva Gulistan Axmedovna — “Qoraqalpog‘ adabiyoti” gazetasi bosh muharriri, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

“Do‘stlik” ordeni bilan

Aymuratova Liza Aytmuratovna — “Quo‘anish jama” irrigatsiya tizimi boshqarmasi muhandis-gidrotexnigi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

Bag‘ishova Bilimxon Alimbekovna — Chortoq tumanidagi “Soz-soy” mahalla fuqarolar yig‘ini xotin-qizlar faoli, Namangan viloyati

Jo‘raqulova Rano Muhamedjanovna — Samarqand viloyati musiqali drama teatrlining drama artisti

Raximova Guluro — Xorazm viloyati musiqali drama teatrlining yetakchi sahna usti

Raximova Rayxon Abdurasulovna — Surxondaryo viloyati hokimligi huzuridagi fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari xodimlarining malakasini oshirish o‘quv kursi direktori

Egamberdiyeva Turgunoy Axamadjonovna — Farg‘ona davlat universitetining O‘zbekiston tarixi kafedrası professori, Farg‘ona viloyati

Aslonova Emma Sergeyevna — O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Byudjet va iqtisodiy islohotlar qo‘mitasi a‘zosi

Axmedova Maxsuma To‘xtamurodovna — O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi, yozuvchi Baxramova Rizvon Axrorovna — Buxoro viloyati bosh imom-xatibining xotin-qizlar masalalari bo‘yicha yordamchisi, bosh o‘tinoyisi

Voxidova Matlubaxon Manonovna — So‘x tumanidagi “Mulki Bovohid” mas’uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Farg‘ona viloyati

Djakeyeva Zamira Derbisovna — Tomdi tumani sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo‘limi boshlig‘i, Navoiy viloyati

Djuraliyeva Azamat Turayevna — Termiz tumanidagi “Temur bobo” fermer xo‘jaligi agronomi, Surxondaryo viloyati

► Davomi 2-betda

Shukuh

OLAM NURGA TO‘LSIN
SEN BILAN, NAVRO‘Z!

Jonajon diyorimizga barchamiz orziqib kutgan, go‘zal va betakror, fasllar kelinchagi Navro‘zi olam tashrif buyurmoqda. Ming yillar davomida ma‘naviy hayotimizning ko‘rku ziynati bo‘lib kelayotgan bu xosiyatli bayram bugun qalblarimizga yana cheksiz quvunch va zavq bag‘ishlamodga.

► Davomi 2-betda



Ruziyeva Dilorom Muxitdinovna — “Hunarmand” uyushmasining Buxoro viloyati boshqarmasi aʼzosi, zardoʻz

Soxibova Xusniobod Maxammadovna — Asaka tumanidagi 16-koʻzi oʻjiz bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatining ona tili va adabiyot fani oʻqituvchisi, Andijon viloyati

Supiyeva Ziyoda Mirxakimovna — Shayxontohur tumanidagi “Lotus Gaz Invest” masʼuliyati cheklangan jamiyati rahbari, Namangan viloyati

Toshmatova Xakimaxon Raximjonovna — Namangan shahridagi “Mega Star Flowers” masʼuliyati cheklangan jamiyati bosh choʻponi, Navoiy viloyati

Toʻychiyeva Shoxista Xolboyevna — Nurota tumanidagi “Nurota qorakoʻl naslchilik” masʼuliyati cheklangan jamiyati bosh choʻponi, Navoiy viloyati

Turayeva Qunduz Xaitovna — “Oʻzbekiston temir yoʻllari” aksiyadorlik jamiyatining “Qarshi mintaqaviy temir yoʻl uzeli” unitar korxonasi katta elektr mexanigi, Qashqadaryo viloyati

Xudaynazarova Maloxat Juramuradovna — Yangiyer shahridagi “Muruvvat” nogironligi boʻlgan shaxslar uchun ayollar internat uyi farroshi, Sirdaryo viloyati

Shamalikova Dilfuza Shayunusovna — “Gʻuncha” jurnali bosh muharriri

Shukurova Etibar Mirazizovna — Toshkent shahri obodonlashtirish bosh boshqarmasining markaziy maydonlarni obodonlashtirishga ixtisoslashtirilgan boshqarmasi ishchisi

Egamberdiyeva Xurshida Primkulovna — Boyovut tumanidagi “Ibrat asademy” oʻquv markazi rahbari, Sirdaryo viloyati

Yulborsova Motuba Omonovna — “Oʻzyoʻlkoʻprik” klasterining Fargʻona viloyati filiali yoʻl boʻlimi ishchisi

Yakubova Sharapat Mannonovna — Sharof Rashidov tumani obodonlashtirish boshqarmasi hudud tozalovchisi, Jizzax viloyati

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti

Toshkent shahri, 2024-yil 5-mart

Shukuh

OLAM NURGA TOʻLSIN SEN BILAN, NAVROʻZ!

“ NAVROʻZI OLAM DOIMO XALQIMIZ UCHUN

MILLIY IFTIXOR, MILLIY GʻURUR, OʻZLIKNI

ANGLASH VA HAMJIHATLIK RAMZI BOʻLIB

KELGAN VA SHUNDAY DAVOM ETADI.

Mansur MUSAYEV,

Ijtimoiy-maʼnaviy tadqiqotlar instituti

boʻlim boshligʻi,

siyosiy fanlar doktori

Boshlanishi 1-betda

Ona tabiatni sevish va ardoqlash, hayot gultoji boʻlmish insonni qadrlash, Vatanga muhabbat va sadoqat kabi ezgu gʻoyalarni oʻzida mujassam etgan Navroʻz xalqimizning eng qadimiy, milliy bayramidir. 2024-yil 4-mart kuni Prezidentimiz qarori bilan ushbu ayyomni bu yil yurtimizda “Olam nurga toʻlsin sen bilan, Navroʻz!”, degan bosh gʻoya asosida nishonlash belgilandi.

Mamlakatimizda erkin va farovon hayot barpo etish, inson qadrlari ulugʻlashdek buyuk maqsadlarni amalga oshirishga qaratilgan keng koʻlamli demokratik islohotlar jarayonida barcha milliy qadriyatlarimiz qatori Navroʻz umumxalq bayrami ham oʻziga xos maʼnaviy tayanch boʻlib xizmat qilmoqda. Millati, tili va dinidan qatʼi nazar, har bir vatandoshimiz oʻzining huquq va manfaatları, qadr-qimmatini tobora chuqur anglab borayotgan yangi Oʻzbekiston sharoitida Navroʻz, tom maʼnoda, umumxalq bayramiga aylanib, el-yurtimiz tomonidan katta shodu xurramlik bilan nishonlanadi. Xalqimiz asrlar davomida eʼzozlab kelayotgan, BMT tarafidan ham

xalqaro bayram sifatida eʼtirof etilgan Navroʻzi olamning ana shunday beqiyos ahamiyatini hisobga olib, ushbu ayyomni mamlakatimizda olib borilayotgan ulkan oʻzgarish va yangilanishlar jarayoniga uygʻun va hamohang tarzda, har tomonlama yuksak saviyada, koʻtarinki ruhda nishonlashga alohida eʼtibor qaratib kelinadi.

Navroʻz bayrami qadimdan tabiatning uygʻonish ramzi sifatida keng nishonlanadi. Ushbu bayramni xalqimizda sayillar oʻtkazish, atrof-muhitni obodonlashtirish va

shukuhli kunlarda xalqimizning betakror mehr-oqibati va bagʻrikengligi tufayli yordamga muhtoj insonlar, keksa, nogironligi bor va kam taʼminlangan oilalar holidan xabar olish, ularga begʻaraz koʻmak berish, jamiyatda oʻzaro hurmat, doʻstlik va hamjihatlikni kuchaytirishga qaratilgan

topgan. Shukuhli kunlarda xalqimizning betakror mehr-oqibati va bagʻrikengligi tufayli yordamga muhtoj insonlar, keksa, nogironligi bor va kam taʼminlangan oilalar holidan xabar olish, ularga begʻaraz koʻmak berish, jamiyatda oʻzaro hurmat, doʻstlik va hamjihatlikni kuchaytirishga qaratilgan

savobli ishlar, xayriya tadbirlari va ommaviy hasharlar uyushtirish yaxshi anʼanaga aylangan.

Koʻp ming yillik tarixga ega ushbu bayram haqida “Avesto”da, shuningdek, Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma”, Mahmud Koshgʻariyning “Devonu lugʻotit turk”, Abu Bakr Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asarlarida Navroʻz tarixi bilan bogʻliq maʼlumotlar keltiriladi. Ularda qayd etilishicha, Navroʻzni bayram sifatida nishonlash miloddan avvalgi VI-V asrlarda boshlangan.

Navroʻz bayrami haqida turli qadimiy manbalarda ham baʼzi maʼlumotlar saqlanib qolgan. Bu haqda Abu Rayhon Beruniy shunday yozadi: “Bu kun — farishtalar qadrlaydigan kundir, chunki shu kuni farishtalar yaratilgan. Bu kunni paygʻambarlar ham qadrlaydi, chunki shu kuni quyosh yaratilgan. Bu kunni bihram ham qadrlaydi, chunki bu kun yilning shohli kundir”.

Navroʻz bahor faslining boshlanishi, aniqlik, teng kunlik tananasidir. Boshqacha aytganda, Navroʻz falakiyot ilmi bilan bogʻliq. Chunki “hamal”, “burj”, “yil boshi” kabi tushunchalar bevosita Yer va uning Quyosh tizimidagi harakatiga, vaqtni belgilashga

borib taqaladi. Navroʻz yangilanish, yangi kun, yangi hayot ramzi boʻlish bilan birga, poklik va shodlik, maʼnaviyat va birdamlik timsolidir. Shunday ekan, Navroʻzi olam doimo xalqimiz uchun milliy iftixor, milliy gʻurur, oʻzlikni anglash va hamjihatlik ramzi boʻlib kelgan va shunday davom etadi.

Qadimiy va milliy bayramimiz yurtimizda istiqlol quyoshi porlagan onlardayiq qaytadan chiroy ocdi. U bugun hayotga muhabbat ramzi sifatida ardoqlanadi. Bahor chechaklarini qanotida olib kelgan Humo qushi yurt kezanida olam oʻzgacha munavvar boʻlganini dildan his etmagani kishi topilmasa kerak.

Fasli navbahorga payvasta xalq marosimlari, urf-odat va anʼanalari milliy tuygʻularimizni yanada joʻsh urdiradi. Shu kuni shahar qishloqlarimizda xalqning sayilga chiqishini kuzatsangiz, dilingiz yayraydi. Shunday dorilamon kunlarga yetkazgani uchun Yaratganga shukronalar aytasiz.

Kezi kelganida shuni alohida qayd etish joizki, xorijda ham Navroʻz bayrami va uni nishonlashga boʻlgan qiziqish tobora ortib bormoqda.

Umuman olganda, Navroʻz asrlar mobaynida biz uchun ezgulik timsoli, inson qalbida bunyodkor, yorugʻ orzu-umidlar kurtak ochadigan fasl boʻlib kelgan. Navroʻzi olam Vatanimizda yashayotgan barcha millat va elat vakillari, yaʼni butun xalqimiz uchun suyuqli bayram sifatida yaxshi qoʻshnichilik, hamkorlik, madaniyatlararo muloqotlarni ragʻbatlantirishga xizmat qilmoqda. Insoniyat qadriyatlarining muhim qismi boʻlish bilan birga, Oʻrta Sharq, Kavkaz, Oʻrta va Janubiy Osiyo hamda boshqa mintaqalargi uchun alohida ahamiyatga ega boʻlgan kunlardan biri hisoblanadi. Shu kabi oʻzining oʻlmas ruhi, umuminsoniy gʻoyalari bilan bashariyat hayotidan tobora chuqur oʻrin egallab kelmoqda.

Zero, Navroʻzi olam tinchlik va farovonlik, birdamlik, hamjihatlik ramzi oʻlaroq, nafaqat Vatanimizda yashayotgan barcha millat va elat vakillari, balki dunyoning koʻplab davlatlari xalqlarining eng suyuqli bayrami sifatida qadrlı boʻlib qolaveradi.

Mintaqaviy hamkorlik

MARKAZIY OSIYO INTEGRATSIYASI

Mintaqaning o‘zaro bog‘liqligi bizga nima beradi?

Tarixi bir, urf-odat, madaniyat va qadriyatlari mushtarak Markaziy Osiyo mintaqasi xalqlari o‘rtasida o‘zaro ishonch, yaxshi qo‘shnichilik va sheriklik munosabatlari tobora mustahkamlanib bormoqda. Xususan, keyingi yillarda mintqa davlatlarining umumiy ichki mahsuloti 40 foizga ko‘paydi. Mamlakatlarimiz o‘rtasida savdo hajmining barqaror o‘sishi kuzatilmoqda. Masalan, tovar aylanmasi 2,5 barobardan ziyod oshdi. O‘zaro investitsiyalar hajmi qariyb 6 marta, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimi esa 45 foiz o‘sd. Bundan tashqari, ichki mintaqaviy turizm 2 barobar faollashdi.



tahdidlardan himoyalashning samarali yo‘li kuchlarni birlashtirish hisoblanadi.

Ikkinchidan, mintaqaviy muammolar vaqt o‘tgan sayin keskinlashmoqda. Ularni bir davlat darajasida hal qilib bo‘lmaydi. Bunda birgalikdagi harakatgina yaxshi samara beradi.

Uchinchidan, mintaqaning iqtisodiy taraqqiyotiga xizmat qiladigan loyihalarni amaliyotga tatbiq etish uchun kuchlarni birlashtirish kerak. Bir davlat yakka holda bu loyihalarni amaliyotga tatbiq eta olmaydi. Ekspertlarning fikricha, mintqa davlatlarining tovar ayirboshlashda o‘z imkoniyatlarini maksimal ishga solishi mintqa uchun 10-20 milliard dollar foyda keltirib, 1 million 200 mingdan 2 milliongacha qo‘shimcha ishchi o‘rinlarini tashkil qilish imkonini beradi.

— Biz bu borada hozir qaysi bosqichdami?

— Mintaqaviy integratsiya ko‘p tomonlama hamkorlikning yuqori bosqichida shakllanadi. Ko‘p tomonlama hamkorlik rivojlanmagan makonda mintaqaviy integratsiya ham shakllanmaydi. Chunki ko‘p tomonlama hamkorlik natijasida mintaqaviy integratsiyaning asosiy tamoyillari — o‘zaro ishonch, umummanfaatdorlik ortadi. O‘z navbatida, bu hamkorlik samara beradi va uni rivojlantirishga ehtiyoj kuchaya boradi. Buni jamiyat ham, hukumat ham his qila boshlaydi. Bundan tashqari, mintaqaviy integratsiya uchun ko‘lam va jabhalar ham muhim. Ya‘ni turli sohalar, turli toifa vakillari kesimidagi integratsiya shakllanishi kerak. Bu esa ko‘p tomonlama hamkorlik zaminida yuzaga keladi. Ana shu mezonlar asosida mintaqadagi integratsion jarayon darajasiga baho beradigan bo‘lsak, Markaziy Osiyoda mintaqaviy integratsiya asosli shakllanyapti yoki mintqa ko‘p tomonlama hamkorlikning rivojlanish bosqichida.

Navbatdagi masala — mintaqamizdagi integratsiya jarayonlariga Afg‘onistonni jalb qilish masalasiga kelsak, mintaqaviylashuv mezonlariga ko‘ra, bu mamlakatsiz mintqa imkoniyatlari cheklanadi, lekin shu holatda uni integratsion jarayonlarga tortib ham bo‘lmaydi. Sababi, unda Afg‘onistonning imkoniyatlari bilan birga muammolarini ham baham ko‘rishimiz zarur bo‘ladi. Bu mintqa xavfsizligiga tahdidlarni keltirib chiqarishi mumkin. Shunday ekan, avvalo, Afg‘oniston bilan hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqishimiz muhim va quyidagi loyihalar istiqbolli hisoblanadi.

Jumladan, biz uchun eng muhim geostrategik loyiha Transafg‘on koridorini hisoblanadi. Bu loyiha Afg‘onistondagi ijtimoiy muammolari, ya‘ni ish o‘rinlari yaratish imkoniyatini ham beradi. Transzidan afg‘on xalqi ulkan foyda oladi. Shu bilan birga, buning butun mintqa uchun geosiyosiy ahamiyati shundaki, tobora mustaqil qutb sifatida shakllanayotgan Hindiston bilan bog‘liqlik paydo bo‘ladi.

Afg‘oniston tomonidan qurilayotgan Qo‘shstepa kanalini betonlashtirishda mintqa davlatlarining ishtirok etishi orqali suv isrofgarchiligini karrasiga kamaytirish mumkin. Shu nuqtayi nazardan, mavjud hokimiyat bilan murosas orqali maqsadga erishish muhim hisoblanadi. O‘zbekiston hukumatining bu boradagi siyosatini olqishlash mumkin. Sababi, davlatimiz har qanday sharoitda afg‘on xalqiga gumanitar yordam beryapti va xalqaro hamjamiyatni ham bunga chorlayapti.

Afg‘oniston bilan munosabatlarda “yumshoq kuch”dan samarali foydalanish muhim. Shu nuqtayi nazardan, mintqa Afg‘oniston bilan alohida — “Markaziy Osiyo+Afg‘oniston” formatida hamkorlikni rivojlantirishi maqsadga muvofiq. Bu formatning asosiy maqsadi — hamkorlikni kuchaytirish orqali Afg‘onistonni mintqa uchun potensial xavfdan ulkan imkoniyatlar makoni darajasiga olib



chiqish. Qolaversa, keyingi yillarda mintqa diplomatiyasining muhim yutuqlaridan biri ham turli formatlar kesimida diplomatik aloqalarni mustahkamlash va unda ustuvorlik mintqani yaxlit holda namoyon etish hisoblanadi (C5+1, Markaziy Osiyo+Yaponiya, Markaziy Osiyo+Xitoy, Markaziy Osiyo+YI).

— Mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha ana shunday muhim jarayonlar qanday natija bermoqda?

— Nazarimizda, erishilgan eng muhim yutuq keyingi yillarda davlatlar o‘rtasida o‘zaro ishonch mustahkamlangani bo‘ldi. Sir emas, mintaqada integratsiya yo‘lida

chizig‘ining yana 1,11 kilometri bo‘yicha kelishib oldi.

Navbatdagi yutuq mintaqada birlashish zaruratini ko‘pchilik anglab borayotgani va aynan ana shu asosda o‘zaro hamkorlik yanada kengayganidir. Ukraina va Rossiya mojarosi fonida dunyo tartibotining o‘zgarishi mintqa davlatlari siyosiy elitasini o‘zaro birlashishga undamoqda. Qolaversa, O‘zbekiston tashabbusi bilan mintaqada yangi formatdagi siyosiy institut — davlat rahbarlarining maslahatlashuv uchrashuvi shakllantirilishi mintaqaga qarshi qaratilgan chaqiruvlarga birgalikda, bamaslahat javob berish imkonini yaratdi. Bugungi kunda

hayoti — butun mintaqamizda tinchlik va barqarorlikni saqlashning garovi deb bilamiz. Mana shu yo‘lda yangi amaliy qadamlar qo‘yayotganimiz, jumladan, qo‘shni davlatlarning rahbarlari bilan olib borayotgan muzokaralarimiz buning amaliy tasdig‘idir”, degan fikrlari O‘zbekistonning mintaqaviy integratsiya masalasida sobitqadam ekanidan dalolat beradi.

Bunday ochiqlik siyosati istiqbolda ham davom etishi belgilanmoqda. Jumladan, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida Markaziy Osiyoda xalqaro huquq va



“O‘zbekiston — 2030” strategiyasida Markaziy Osiyoda xalqaro huquq va mintaqadagi barcha davlatlar milliy manfaatlarini inobatga olgan holda keng qamrovli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlari chuqurlashtirish masalasi ilgari surilgan.

30-yildan ortiq vaqt mobaynida harakat qilib kelinadi. Ammo yaqin yillargacha davlatlar o‘rtasida aynan o‘zaro ishonch bo‘lmagani, bir-biridan hadiksirash oqibatida ma‘lum jabhalarda bir-birini to‘ldiruvchi emas, raqobatchiga aylanish tendensiyasi ustuvorlik kasb etib kelayotgan edi. Bugun esa vaziyat o‘zgardi. Davlat rahbarlaridan boshlab, jamiyatimizning har bir a‘zosisiga qo‘shnilarini potensial raqib emas, balki muhim hamkor deb qarab, munosabatlari shu qarash asosida yangicha tarzda yo‘lga qo‘yila boshlandi. Bu esa mavjud muammolarni uchinchi tomonning aralashuvisiz o‘zaro hal qilish imkonini bermoqda.

Masalan, chegara muammosini olaylik. O‘zbekiston tomonidan Qirg‘iziston bilan chegara muammosini bartaraf etish masalasi ilgari surildi. Yillar mobaynida o‘zaro bahsga sabab bo‘lgan hududlar murosas-madora orqali hal qilindi. 2022-yil noyabrda to‘liq kelishuvga erishildi. 2023-yilda esa 2009-yildan buyon yopiq bo‘lgan Andijon viloyatidagi “Mingtepa” va “Xonobod” o‘zbek-qirg‘iz chegara bojxona postlari ochildi.

Bunday sa‘y-harakatlar esa hatto urushgacha borgan Tojikiston — Qirg‘iziston o‘rtasidagi chegara muammosini tinch yo‘l bilan, kelishuvlar asosida hal qilish uchun turki bo‘ldi. 2023-yil oktyabrda ikki davlat chegarasini delimitatsiya va demarkatsiya qilish to‘g‘risidagi bayonnoma imzolandi. Shu kunlarda bu borada yana bir xushxabar tarqaldi. Ya‘ni joriy yilning 11-18-fevral kunlari Tojikistonning Bo‘ston shahrida Qirg‘iziston va Tojikiston hukumatlari delegatsiyalarining chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish masalalari bo‘yicha navbatdagi yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Yig‘ilish yakunlari bo‘yicha tomonlar davlat chegarasi

ushbu siyosiy institut mintaqaviy integratsiya shakllanishi uchun imkon yaratadigan yagona institut hisoblanadi.

— Mintaqaviy integratsiyani ta‘minlashda O‘zbekiston omiliga qanday baho berasiz?

— Prezidentimizning “qo‘shnilarimiz bilan raqobat emas, o‘zaro manfaatli hamkorlik” degan konseptual g‘oyasi mamlakatimiz qo‘shnilar bilan hamkorligining yangi bosqichini boshlab berganini alohida qayd



etish joiz. Aynan shu g‘oyani moddiy kuchga aylantirish uchun davlatimiz rahbari mintaqadagi barcha respublikalarga davlat tashriflarini amalga oshirdi. Umuman, O‘zbekiston mintaqaviy hamkorlikka liberal yondashib, tadjiriy rivojlanish, umummanfaat ustuvorligi tarafdori sifatida pragmatik siyosatni olib bormoqda. Prezidentimizning “Qo‘shnimizning yutug‘i — bu bizning ham yutug‘imiz. Ularning tinch va farovon

mintaqadagi barcha davlatlar milliy manfaatlarini inobatga olgan holda keng qamrovli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlari chuqurlashtirish masalasi ilgari surilgan.

2024-yil uchun mo‘ljallangan davlat dasturida ham Markaziy Osiyo mintaqasida amaliy hamkorlikni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish vazifasi belgilangan. Bularning barchasi O‘zbekiston mintaqaviy hamkorlikdan manfaatdorligini, bu

mavjudligida va ana shu asosga tayanib, strategiya ishlab chiqish va siyosat yuritishda hisoblanadi.

Qizig‘i shundaki, mintaqadagi muammolar ham integratsiya uchun asos bo‘la oladi. Masalan, Yevropada ko‘plab urushlarga sabab bo‘lgan resurslar (po‘lat va ko‘mir) Yevropa integratsiyasi asosi bo‘ldi. Davlatlar o‘rtasidagi doimiy kurashlar va bahslarga sabab bo‘lgan bu resurslar integratsiya uchun jiddiy qadam tashlashga zamin yaratdi.

Nazarimizda, bizda ham xuddi shunday asos sifatida suv, gaz va elektr energiyasini olish mumkin. Xo‘sh, ular qanday qilib asos bo‘la oladi? Ana shuni tahlil qilsak.

Birinchidan, yuqoridagi resurslar mintaqani bog‘laydi. Ulardan ratsional foydalanish bir davlat kesimida hal bo‘lmaydi. Bundan tashqari, ushbu resurslardan foydalanish masalasi vaqt o‘tgan sayin dolzarblashib bormoqda. Qolaversa, bu resurslar bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Biri ikkinchisini taqozo qiladi.

Endi ilgari surayotgan g‘oyamizni ochiqlasak. Mintaqadagi suv zaxiralarning 90 foizga yaqini Qirg‘iziston va Tojikiston hududlarida shakllanadi. Ular suvdan, asosan, elektr energiyasi ishlab chiqishda foydalanadi. O‘zbekiston, Qozog‘iston va Turkmaniston uchun esa qishloq xo‘jaligida juda zarur. Buning uchun Qirg‘iziston va Tojikiston elektr yo‘qotishlarini qoplash uchun Turkmaniston gazidan foydalanib, O‘zbekiston IESlari ko‘proq elektr energiya ishlab chiqib, qish mavsumida Tojikiston va Qirg‘izistonga yetkazib berishi maqsadga muvofiq.

Yoki Turkmaniston gaz xomashyosining O‘zbekiston zavodlarida qayta ishlashni tashkil etish uchun yetkazib berilishi ikki davlat uchun ham manfaat olib keladi. Xuddi shunday, Qozog‘iston neftini ham qayta ishlash mumkin. Ana shu tarzda mintaqadagi muhim



resurslardan birgalikda, ratsional foydalanish davlatlarni birlashtiradi, mintaqaviy integratsiyaga asos soladi. Muhimi, bunday formuladan hamma manfaatdor bo‘ladi. Bu jarayonga bosqichma-bosqich Afg‘onistonni ham jalb qilish mumkin.

Umuman olganda, bugungi kunda mintaqaviy integratsiyani shakllantirish uchun noyob imkoniyat vujudga keldi. Bu, avvalo, dunyoda kechayotgan geosiyosiy vaziyat bilan bog‘liq. Ya‘ni hozirgacha mintqa integratsiyasiga to‘sqinlik qilib kelgan yirik geosiyosiy kuchlar muammolar girdobida o‘zaro kurashmoqda.

Ikkinchidan, tobora dolzarblashib borayotgan mintaqaviy muammolarning yechimi yo‘lida ham dilema vujudga keldi. Ya‘ni birlashib, ularni yechamiz yoki vaziyatimizni yanada chigallashtirib boraveramiz. Shunday ekan, vaqtdan unumli foydalanish muhim. Mintaqaviy integratsiya uchun jiddiy qadamlar tashlash zarur. Bu borada 2024-yil hal qiluvchi yil bo‘lishi lozim.

Markaziy Osiyoda suv xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan hamkorlikdagi ilmiy-amaliy loyihalarni yo‘lga qo‘yish hamda ularni moliyalashtirish bo‘yicha xalqaro grantlarni jalb qilish ham oldimizda turgan muhim vazifa.

Ishonchimiz komilki, tarixan hamkor va hamnafas yashab kelgan mintaqamiz xalqlari bugungi murakkab geosiyosiy vaziyatda kelajak taqdirimizni belgilaydigan bunday dolzarb vazifalar yechimi yo‘lida hamjihatlik, yakdillik ko‘rsatib, kelgusi avlodlarimiz tinch, farovon va go‘zal zaminda, ahil-inoq, baxtli yashashi uchun bugun mustahkam poydevor qo‘yishga erishadi.

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri
Bahor XIDIROVA
subhatlashdi.



Yangicha yondashuvlar

AGROELEKTRIK QUYOSH PARKI

2050-yilga borib, energiya ehtiyojining 45-50 foizi uning yordamida taʼminlanishi kutilmoqda



Iroda TOSHMATOVA,
“Yangi Oʻzbekiston” muxbiri

Tahillarga koʻra, yurtimizda quyosh va shamol energiyasi salohiyati elektrga boʻlgan hozirgi ehtiyojni 10-12 barobar ortigʻi bilan qoplashga yetadi. Faqat buning uchun mavjud imkoniyatni ishga solish kerak. Oxirgi yillarda nafaqat sanoat tarmoqlari va korxona-tashkilotlar, balki aholi xonadonlarida ham quyosh panellaridan foydalanish koʻlami ortib borayotganini sohaga jiddiy eʼtibor qaratilayotgani bilan izohlash mumkin. Deyarli barcha viloyatlarda zamonaviy quyosh va shamol elektr stansiyalari barpo etilyapti.

“Yashil” energiya manbalarini barpo qilish boʻyicha katta dasturlar boshlangan. Xususan, bundan aholi manfaatdorligini oshirish maqsadida “Quyoshli xonadon” dasturi joriy qilindi. Unga koʻra, quyosh paneli oʻrnatgan aholidan har 1 kilovatt elektrni ming soʻmdan sotib olish tizimi yoʻlga qoʻyildi. Hozir 11 mingga yaqin xonadon egalari bu imkoniyatdan samarali foydalanmoqda.

Dunyoning koʻplab davlatlari “yashil” iqtisodiyotga oʻtish harakatida. Bu hozirgacha biz foydalanayotgan va ekologiya, atrof-muhitga jiddiy zararli taʼsir koʻrsatayotgan quyogʻli manbalari oʻmini tabiiy, ekologik toza, eng muhimi, qayta tiklanadigan manbalar bilan almashtirishga qaratilgan harakatdir. “Yashil” energiya quvvatlarini koʻpaytirish buning bir qismi. Shu bois, joriy yilning 28-fevral kuni davlatimiz rahbari boshchiligidagi qayta

tiklanuvchi energiya manbalarini koʻpaytirish boʻyicha ustuvor vazifalar yuzasidan oʻtkazilgan yigʻilishda mazkur yoʻnalishda yangi vazifalar belgilab olindi. Xususan, qishloq va suv xoʻjaligi, ichimlik suvi taʼminoti kabi energiya sarfi yuqori boʻlgan sohalarda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini qoʻllash ishlari jadallashtirish topshirildi. Joriy yilda yurtimizning 6 ta tumanida amalga oshirilishi rejalashtirilgan agrovoltaika usulidagi pilot loyiha shular jumlasidan. Bu qishloq xoʻjaligi yerlarida quyosh panellarini oʻrnatishga qaratilgan loyiha boʻlib, ayni paytda bu boʻyicha xorij tajribasi oʻrganilmoqda.

— Agrovoltaika yoki “quyosh fermalari” qishloq xoʻjaligi yerlari yoki toʻgʻridan-toʻgʻri ekinlar, bogʻlar ustida quyosh panellarini oʻrnatish orqali ham elektr energiyasi ishlab chiqaradigan, ham ekinlarni noqulay ob-havo, quyoshning zararli nurlaridan himoya qilib, ularning sogʻlom oʻsishi uchun qulay sharoit yaratib beradigan kombinatsiyalangan tizimdir, — deydi Qishloq xoʻjaligi vazirligi bosh mutaxassisi Bahrom Yusupov. — Bunda oʻsimliklar yorugʻlik energiyasining atigi 10 foizini talab qiladi, quyosh nurlarining qolgan qismi esa elektr energiyasi ishlab chiqarishga sarflanadi. Agrovoltaika mamlakatimiz qishloq xoʻjaligi uchun yangi usul boʻlib, uni rivojlantirish agar tarmoq va ekologik barqarorlikni taʼminlashning muhim istiqbolli imkoniyatlaridan biri hisoblanadi. “Agrovoltaika” soʻzi oʻzbekchada “agroelektrik quyosh parki” yoki “agroelektrik maydon” degan mazmuni beradi. Hisob-kitoblarga koʻra, yurtimizda 10 gigavattli agrovoltaika salohiyati mavjud. Bu diyorimizda muqobil iqlim sharoiti hamda deyarli yil boʻyi beminnat nur sochib turuvchi quyosh energiyasi mavjudligi bilan bogʻliq.

Kamxarj va tejamkor

Yaqinda internet tarmogʻida bir maʼlumotga koʻzim tushdi. Unda yozilishicha, 2023-yilda Yevropa Ittifoqi rekord miqdordagi quyosh panellari va shamol turbinalarini oʻrnatib, toʻgʻonlar va atom elektr stansiyalaridan koʻra koʻproq elektr energiyasi ishlab chiqarishga muvaffaq boʻlibdi. Buning hisobiga havoga karbonat angidrid chiqishi avvalgi yildagiga nisbatan 8 foiz kamaygan. Qayd etilishicha, bu soʻnggi 60-yildagi eng past koʻrsatkichdir.

Dunyo mamlakatlari “yashil” iqtisodiyot tomon dadil harakatlanmoqda. Chunki vaziyat allaqachon shuni taqozo etyapti. Global iqlim oʻzgarishlari bilan bogʻliq bir necha oʻn yillik taxminlar bugun reallikka aylandi va

odamzod uni boshdan kechirmoqda. Havo ifloslanishi bilan bogʻliq kunlik statistik maʼlumotlardan tortib, buning oqibatida yuzaga kelayotgan suv taqchilligi, qurgʻoqchilik, oziq-ovqat yetishmovchiligi bir emas, oʻnlab mamlakatlarga xavf solmoqda. BMtning hisobotiga koʻra, 2050-yilga borib, jahon aholisi soni salkam 10 milliardga yetadi. Demografik oʻsish, tabiiyki, insoniyatga yangidan-yangi muammolarni keltirib chiqaradi. Ular orasida energiya muammosi ham boʻlishi tabiiy. Qizigʻi, bu muammoning muqobil yechimlari boshqa mushkulotlarni-da bartaraf etishi mumkin. Bu, albatta, qayta tiklanadigan energiya manbalari koʻlaminii oshirish bilan bogʻliq. Bir tasavvur qiling, shamol generatori, quyosh panellari, elektr tokida harakatlanadigan transport vositalari ekologik muhitni asrashimizga qanchalik katta hissa qoʻshadi.

Bunday zarurat qishloq xoʻjaligi sohasida ham mavjud. Yaʼni muqobil energiya manbalari oziq-ovqat xavfsizligini taʼminlash, qishloq xoʻjaligi mahsulotlari yetishtirishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etishga koʻmaklasha oladi. Ilm-fan va innovatsion texnologiyalar uygʻunligi bunga yoʻl ochmoqda. Biz yuqorida tilga olgan agrovoltaika usuli shulardan biri. Texnologiyaning oʻziga xosligi shundaki, oʻrnatiladigan quyosh panellari elektr energiyasi ishlab chiqarishdan tashqari uning ostidagi hududlardan samarali foydalanishga xizmat qiladi.



— Agrovoltaika energiya va oziq-ovqat ishlab chiqarishni bitta yer uchastkasida

birlashtiruvchi usul hisoblanadi, — deydi Bahrom Yusupov. — Sodda qilib aytganda, quyosh panellari ostidagi soyal joylardan ekin oʻstirish yoki chorva mollari uchun maydon sifatida foydalanish mumkin. Shuning uchun panellar orasidagi zichlik oʻta yuqori boʻlmasligi kerak. Ayniqsa, ekinlar yetarli quyosh nurini olish uchun panellar orasidagi boʻshliqqa muhtoj. Panellar shaffofligi tufayli qishloq xoʻjaligida foydalaniladigan yerlar, masalan, dala va issiqxonalarni butunlay qoplab olishi mumkin. Bunda u oʻsimliklarning pastki qismini qorongʻilik bilan toʻsib qoʻymaydi, tabiiy yashash muhitini buzmaydi yoki atrof-muhitga zarur yetkazmaydi. Dalalarga quyosh panellarini oʻrnatish oʻsimliklar uchun soya va himoyani taʼminlaydi, bu, ayniqsa, yuqori harorat va quyosh nurlari ekinlarga salbiy taʼsir koʻrsatishi mumkin boʻlgan issiq hududlarda muhim. Bundan tashqari, undan foydalanish qishloq xoʻjaligida suv sarfini kamaytirishi mumkin, chunki bugʻlanish kamayadi va tuproqdagi namlik uzoq vaqt saqlab qolinadi. Asosiysi, ushbu qurilma ekologik toza energiya manbai boʻlib, hech qanday issiqxona gazlarini chiqarmaydi. Qolaversa, quyosh panellari dehqon va fermerlarning energiya xarajatlarini sezilarli kamaytiradi. Ular fermer xoʻjaliklarida quyosh panellari tomonidan ishlab chiqarilgan elektr energiyasidan yorugʻlik, sovitish yoki sugʻorish texnologiyalarini qoʻllash kabi ehtiyojlar uchun foydalanishi mumkin.



Agrovoltaik panellar oʻrnatish hech qanday geotexnik ishlarni talab qilmaydi. Aksincha,

quyosh panellari dehqon va fermerlar uchun qoʻshimcha daromad manbai boʻlib, elektr energiyasining oʻz ehtiyojlaridan ortgan qismini davlatga sotishi mumkin. Muqobil energiya manbalarini hosil qiluvchi qurilmalardan foydalanish nafaqat aholi, balki mamlakat iqtisodiyoti uchun ham foydali. Shu bois, Yaponiya 2012-yilda agrovoltaiklar uchun maxsus imtiyozlarni joriy qilgan birinchi davlat boʻldi. Keyinchalik Fransiya, Xitoy, AQSH va boshqa koʻplab mamlakatlarda shunga oʻxshash tizimlar tatbiq etila boshladi. Yurtimizda ham keyingi yillarda muqobil energiya hosil qiluvchi qurilmalarni oʻrnatadigan talabgorlarga koʻplab imtiyozlar, subsidiyalar ajratilayapti.

Har qanday haroratda ishonchli himoya

Dehqon yoki fermerlar bilan suhbatlashganda, ularning quyosh panellarini oʻrnatishga qiziqishi ortib borayotganiga guvoh boʻlamiz. Aksariyatini ushbu qurilmalar arzon va ekologik toza energiya manbai ekanini, umumiy tarmoqqa bogʻliq boʻlmagan holda muntazam elektr toki olish imkonini mavjudligi qiziqtiradi. Axir, dala maydonlarida ham elektr tokiga ehtiyoj katta — foydalaniladigan qurilmalarning koʻpi elektrda ishlaydi. Shu bois, yurtimizdagi qishloq xoʻjaligi yerlari, fermer xoʻjaliklarida ham quyosh panellarini oʻrnatish boshlangan. 2022-yilda buni oʻz faoliyatida birinchi qishloq xoʻjaligi fermer xoʻjaligi haqida yozgan edik. Jizzax viloyati Baxmal tumanidagi “Bakhmal fruit growing” fermer xoʻjaligi elektr energiyasi taʼminotida yuzaga keladigan tez-tez uzilishlar sabab avvaliga quvvati 3 kilovattlik shamol generatori, 2022-yil mart oyida esa quvvati 5 kilovatt boʻlgan kichik quyosh fotoelektr stansiyasi qurilmasini oʻrnatgandi. Oʻshanda qurilma xoʻjalik uchun zarur elektr toki uzluksizligini taʼminlash barobarida isteʼmol qilingan elektr toki toʻlovlar kamayishiga ham olib kelgan.

“Ochigʻi, bu qurilmalarni oʻrnatish haqida ancha avvaldan oʻylab yurardim. Texnologiya yurtimiz sharoiti uchun yangi boʻlgani bois, samaradorligi borasida xavotir va ikkilanshlarim boʻlgan. Ammo shamol generatori ishlay boshlagach, barcha shubhalarim yoʻqoldi. Qurilmalar nafaqat xoʻjalikni uzluksiz elektr energiyasi bilan taʼminlashda, balki moddiy tomondan ham foyda keltiriyapti. Ular energiya xarajatini 10-15 foiz qisqartirdi”, degandi “Bakhmal fruit growing” fermer xoʻjaligi rahbari Olim Nazarov.

Odamlar quyosh panellari yordamida elektr toki olishga odatiy hol sifatida qaray boshladi.

Asosiysi, ekologik toza, “yashil” energiyaga oʻtish jarayoni faollashadi. Endi agrovoltaika usulini joriy qilishda ham shunday faollik talab etiladi.

— Avvalo, “agroelektrik maydon” qurgʻoqchilikdan zarar koʻrayotgan hududlar uchun muhim ahamiyatga ega, — deydi Bahrom Yusupov. — Boisi, jazirama issiqda ham quyosh batareyalari ostida qishloq xoʻjaligi mahsulotlari yetishtirish imkoniyati mavjud va panellar ekini quyosh hamda ultrabinafsha nurdan himoyalaydi. Qolaversa, mazkur innovatsion usulni erkin iqtisodiy zonalardagi yirik maydonlarda tashkil etilgan issiqxona kompleks xoʻjaliklari, aholi yashash punktlaridan uzoqda joylashgan, elektr va suv taʼminoti ogʻir boʻlgan hududlarda tashkil qilingan fermer hamda dehqon xoʻjaliklari, togʻ yonbagʻirlari, adirlardagi uzumzor va mevazorlar, issiqxona xoʻjaliklarida tashkil etishga zarurat bor. Elektr taʼminotida tez-tez uzilishlar boʻladigan yoki elektr taʼminoti ogʻir, aholi zich joylashgan va aholining koʻp qismi tomoqasida qishloq xoʻjaligi mahsulotlari yetishtirish bilan band boʻlgan hududlar ham shular jumlasidan. Yaʼni biz dastlabki bosqichda ana shunday yer maydonlarini tanlab olamiz. Keyinchalik yurtimizning barcha hududlarida ushbu usulni joriy etish rejalashtirilgan. Umuman, bu borada barcha ilmiy va huquqiy asoslarni yaratish maqsadida Prezidentning “Qishloq xoʻjaligiga moʻljallangan yerlarda va quvvati 1-20 MVt. boʻlgan qayta tiklanuvchi energiya manbalarini asosidagi elektr stansiyalaridan foydalanish toʻgʻrisida”gi qarori loyihasi ham tayyorlangan.

Agrovoltaika chindan yangicha va zamonaviy usullardan biri. Ammo bu juda muammal usul, barcha kamchilik va muammolardan xoli, deysiz fikridan yiroqmiz. Agrovoltaika oʻrnatishda ham ayrim muammolar mavjud va shulardan eng asosiysi — chang miqdori. Mutaxassisning tushuntirishicha, panellar yuzasiga chang zararlari qoʻnishi natijasida yuz beradigan changlanish samaradorlikka salbiy taʼsir koʻrsatuvchi asosiy omillardan biri. Afuski, geografik joylashuvimiz, asosan, tekisliklardan iborat relyef boʻlgani bois, yurtimiz iqlimida chang zararlari koʻp. Panellar oʻrnatilgan lokatsiya atrofida qishloq xoʻjaligiga doir ishlar yoki avtomobil trassalarining joylashuvi changlanish darajasini belgilaydi. Agar ushbu manzilda yengil shamol esa, changlanish darajasi ham yuqori boʻladi. Kuchli shamol yuzalarni changdan tozalashi evaziga changlanish miqdorini kamaytiradi. Shu sababli fotoelektrik quyosh panellarini oʻrnatishda atrof-muhit va changning xususiyatlarini inobatga olinadi.

Bundan tashqari, panellar yuzasida profilaktik tozalov ishlarni amalga oshirish lozim. Yana bir yechim sifatida panellar yuzasini gidrofob va changdan himoyalovchi shaffof qatlamlar bilan himoyalash tavsiya etiladi. Changli ob-havo sharoiti, xususan, yoz faslida bir oyda 1-2 marta yuzasini artib turish lozim.

Qish oylari esa quyosh panellariga u qadar zarar yetkaza olmaydi. Gap shundaki, qor panel yuzasiga oʻrnatilgan qor qolishi hollari Oʻzbekiston sharoitida kam kuzatiladi. Bunda oddiy usullar bilan tozalash mumkin. Qor erimaydigan hollarda ham quyosh batareyasiga sezilarli zarari boʻlmaydi. Faqat qorning yorugʻlik oʻtkazuvchanligi yuqori boʻlgani uchun stansiyaning koʻpi bilan 15-20 foiz quvvatini kamaytirishi mumkin. Yogʻingarchilik boʻlgan fasllarda panellar yuzasi changlardan tabiiy ravishda tozalanib, yuvilib turadi. Chunki panellar yogʻingarchiliklardan himoyalovchi maxsus qoplamalar hamda mustahkam suv oʻtkazuvchanlikka ega.

Umuman, hozirgi kunda quyosh energetikasi qayta tiklanadigan energiyaning eng istiqbolli manbalaridan biriga aylangan. Xalqaro energetika agentligi ekspertlari hisob-kitobiga koʻra, 2050-yilga borib, insoniyat energiyaga ehtiyojining 45-50 foizi quyosh energiyasi yordamida taʼminlanishi kutilmoqda. Demak, yaqin yillarda barcha sohalarda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan keng foydalaniladi.

Mahallaning bir kuni

TASHQARIDA AYAMAJIZ — ICHKARIDA KOʻKLAMOY

Ayni kunlarda yangilanish va yasharish fasli — bahor oʻzi ketsa ham izgʻirini ayoz ketmayotgan qish bilan astoydil xayrlashib, yashillik va yaratuvchanlikning bor goʻzalligini zamin uzra sep qilib yoyishga intilmoqda. Bir qarich yerga urugʻ qadayotgan, har bir nihol va koʻchatini koʻz qorachigʻidek asrab, butun mehriini yerga berayotgan omilkor dehqon esa dala yumushlarini ado etishga kirishgan.

Toshkent viloyati hokimligi tomonidan Toshkent tumani Sabzavot mahallasiga uyushtirilgan press-tur jarayonida bunga oʻzimiz ham amin boʻldik. Toʻrt yarim gektar yerda golland lolalari va atirgullari ekilgan issiqxonaga kirib borar ekanmiz, rang-barang gullar iforidan navbahorning haqiqiy nafasini his qildik. Tashqarida ayamajiz, ichkarida esa dilni entiktiruvchi koʻklamoy bor tarovatini namoyish qilib, yastanib yotganday.

— Issiqxonamiz 2016-yilda qurilgan. Bu yerda Niderlandiyadan keltirilgan noyob lolalar yetishtiriladi, — deydi issiqxona agronomi Alijon Ahmadjonov. — Bu turdagi lolalar beqiyos goʻzalligi bilan dunyoda eʼtirof etilgan. Oʻtgan toʻrt yuz yil davomida niderlandiyaliklar bu gullarni yetishtirishda aql bovar qilmas natijalarga erishgan. Aynan ular hozirgi vaqtda ham sayyoramizdagi asosiy lola yetkazib beruvchilardir. Shuning uchun ham biz Niderlandiyadan turli lola pivozlarini

olib keldik. Uch yildan buyon ularning 40 dan ziyod turini yetishtiryapmiz. Lola pivozi yerga qadalgach, 4 oyda gʻuncha holiga keladi. Ekilayotgan pivoz sogʻlom, chirimagan, butun boʻlishi lozim. Lola pivozi zax boʻlmagan, suv shimuvchi, yaxshi oʻgʻitilgan yumshoq yerga ekiladi. Qadalgandan soʻng koʻp suv va oʻgʻit talab qilmaydi, kasallikka chidamli. Hozir bu gulga talab juda katta. 3 haftagacha saqlash va uzoq masofaga tashish mumkin. Birinchi yil ushbu gullar sonini yuz, ikkinchi yil ikki yuz, bu yil besh yuz mingtaga yetkazib, yildan-yilga koʻpaytirib borishni rejalashtiryapmiz. Eng asosiysi, koʻrib turganingiz, koʻzni quvnatgan bu lolalar bahorda nishonlanajak bayramlarga eng munosib sovgʻa boʻladi.

Yilning toʻrt faslida ham ifori olamni tutadigan gullardan tortib, turli tropik mevalarni yetishtirayotgan ushbu xoʻjalikning ish boshlaganiga yaqinda uch yil boʻladi. Issiqxonada ayni paytda ish jarayonlari qizgʻin,



Hakim Yoʻldoshev olgan suratlari.

ishchilarning qoʻli-qoʻliga tegmaydi, sababi — bahoriy ayyomlar yaqin.

Lola va atirgullar iforidan bahra olib, quchoq-quchoq gullar bilan suratlarga tushar ekanmiz, yon-atrofimizdagi boshqa issiqxonalarda yetishtirilayotgan qulupnay va limon singari sarxil mevalardan tatib koʻrishni ham unutmadik. Tanti dehqonlarimiz idish toʻla qulupnaylarni oldimizga terib qoʻydi.

— Bugungi kunda Toshkent tumanida 151 gektar yerda 80 ta issiqxona xoʻjaligi bor. Gulchilikni rivojlantirishga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Bu borada Prezidentimizning 2021-yil 4-avgustdagi “Respublika hududlarida gulchilik va koʻchatchilik sohalarini yanada rivojlantirish toʻgʻrisida”gi qarori dasturilamal boʻlayotir, — deydi Toshkent tumani hokimi matbuot kotibi Dilafroz Z. Ismoilova.

Sabzavot mahallasi dehqonlari ichki bozorlardagi narx-navo barqarorligini taʼminlash barobarida yaxshigina daromad ham topmoqda.

Issiqxonada mirishkorlarning qulupnay yetishtirish tajribalari bilan tanishdik.

— Qulupnay istihda ochadigan, hazmni meʼyorlashtiradigan neʼmat. Uning boshqa shifobaxsh xususiyatlari ham bor. Jumladan,

xotirani yaxshilab, koʻrish qobiliyatini oshiradi va qondagi qand miqdorini meʼyorlashtiradi. Tarkibidagi antioksidantlar organizmni erta qarishdan va jiddiy kasalliklardan himoya qilib, saratonning oldini oladi, — deydi Sabzavot mahallasi faoli Mohira opa Rahimova biz bilan suhbatda. — Shuning uchun mahallamizdagi deyarli har bir xonadon tomoqasida qulupnay ekiladi.

Tuman va poytaxt bozorlarini yilning toʻrt faslida toʻldirib turadigan qulupnayning koʻpini Sabzavot mahallasi mirishkorlari yetishtiradi. Agar shu kunlarda mazkur hududga yoʻlingiz tushsa, mahalliy aholi issiqxonada hosilni terib olayotganlari ustidan chiqasiz. Issiqxonadagi ish esa yil boʻyi toʻxtamaydi. Qulupnayning ayni “ilik uzildi” paytida mahalliy bozorlarga yetkazib berilishi quvonarli. Muhimi, bu orqali koʻplab oilalar bandligi taʼminlangan.

Soʻnggi manzillimiz Tutzor mahallasida istiqomat qiluvchi tadbirkor Sabiha Karimova xonadoni boʻldi. Opaning aytishicha, tandirda soms yopish — onameros kasb. 4 farzandning onasi, 11 nevara va bir chevaraning buvisi Sabiha opa tandirdan endigina uzilgan koʻk somsalarni oldimizga qoʻyar ekan, yangilanish faslining ilk kunlarida hovuri chiqib turgan somsalarga rizqimiz qoʻshilgani ham bir hikmat ekanini taʼkidladi.

Kun davomida Toshkent tumanidagi bir necha issiqxonada boʻlib, u yerda ishlayotganlarning quvonch va tashvishlarini oʻrganar ekanmiz, koʻnglimizdan bunday gaplar kechdi: mehnat qilgan elda aziz.

Gulichehra DURDIYEVA,
“Yangi Oʻzbekiston” muxbiri



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

Bugunning gapi

INSONPARVAR
TA’LIMO‘qituvchi mehnati
natijalarda ko‘rinadiFeruza QODIROVA,
pedagogika fanlari doktori,
professor

Imkoniyati cheklangan bolalarning sifatli ta’lim olishini ta’minlash, ularning oiladan uzoqlashmagan holda inklyuziv muhitda o‘qish huquqini himoya qilish masalasi har bir davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

Mamlakatimizda ham nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlashning samarali tizimini shakllantirish orqali ijtimoiy yordamning zamonaviy mexanizmlarini amalga oshirishda yangi yondashuvlarni joriy etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bugun respublikamizda ta’limga jalb etilmagan bolaning o‘zi yo‘q. Hatto Muruvvat uylaridagi bolalar ham o‘ziga xos ta’lim-tarbiya bilan qamrab olingan.

20-fevral kuni Prezidentimiz raisligida ijtimoiy himoya sohasidagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida imkoniyati cheklangan bolalar boradigan 112 ta maktab va 74 ta maktabgacha ta’lim tashkilotidagi ta’lim dasturini qayta ko‘rib chiqish, maktablarni inklyuziv ta’limga moslashtirish dasturini amalga oshirish muhimligi ta’kidlandi.

Qachon ikki qadam oldinlaymiz?

Ma’lumki, amaliyotda nogiron bolalarning sog‘lom tengdoshlari bilan birgalikdagi ta’limi mavjud bo‘lgan. Ammo bu jarayonda maqsadli tayyorgarlik, maxsus yondashuv yo‘q edi.



2005-yildan maqsadli tajriba-sinov ishlari loyihalar shaklida boshlanib, AQSH, Angliya, Rossiya, Turkiya, Yaponiya tajribalari tahlil etilgan. Dastlabki tajribalarda Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm, Surxondaryo, Toshkent viloyatlarida yashovchi imkoniyati cheklangan 700 nafar bola umumta’lim maktablariga jalb etilgan. Ta’lim muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun 800 dan ziyod o‘qituvchi maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan. Bu jarayonda oilalar ishtirokini ta’minlashga o‘rnatilgan. Bunday tajribalar ham tashkil etilgan.

Shundan so‘ng “Qayerda oila mas’uliyat bilan jarayonda tizimli ishtirok etsa, shu yerda ikki qadam oldinlaymiz. Qayerda oila qatnashmasa, pedagogning ishi oila davom etmasa, erishilgan natija ham izsiz yo‘qoladi”, degan qat’iy xulosaga kelganimiz. Shu ma’noda, Chirchiq davlat pedagogika universitetida ta’lim klasteri doirasida inklyuziv ta’limning har bir ishtirokchisi uchun vazifani aniq mo‘ljallan asosida belgilashga e’tibor qaratamiz.

Ushbu loyihamiz yaqinda bo‘lib o‘tgan “Inklyuziv ta’lim: erishilgan natijalar va kelgusi rejalar” mavzusidagi xalqaro anjumanda alohida e’tirof etildi va tajriba sifatida tan olindi.

Inklyuziv ta’limni ertaroq
boshlash kerak

Aytaylik, oila imkoniyati cheklangan bola dunyoga keldi. Bu holatda ota-onani yolg‘iz qoldirmaslik vaziyatni yengillashtiradi.



Biz, o‘qituvchilar, amaliyotchilar, psixologlar bola inklyuziv ta’limga qanchalik barvaqt jalb etilsa, shuncha yaxshi bo‘lishini bu oilaga tushuntirishimiz kerak. Shundoq ham bunday bolalarni ota-onalari 7 yoshgacha avaylab, uyda olib o‘tiradi, keyin o‘ziga o‘xshagan bolalar bilan birga o‘qitish uchun maxsus maktabga olib keladi. Farzandi maxsus maktabni bitirganidan keyin ham faqat o‘ziga o‘xshaganlar bilan muloqotga oshiqadi.

Mazkur holatdan kelib chiqib, jamiyatga shuni singdirishimiz kerakki, bola qanchalik barvaqt inklyuzivlashtirilsa, ya’ni mahallada bolalar bilan birga o‘ynasa, birga tadbirlarga qatnasha, unda sog‘lom bolalardan-da kuchliroq jihatlar namoyon bo‘lishi mumkin. Qolaversa, bola milliy qadriyatlarini ham anglay boshlaydi. Shuning uchun uni berkitib olib o‘tirishdan naf yo‘q. Sog‘lom bolalar boradigan bog‘chaga borsa, o‘z-o‘ziga xizmatini, gigiyenik ko‘nikmalarni o‘rganadi.

Qiynalgan ota-onalarga
bepul xizmat

Inklyuziv ta’limga kadr tayyorlashda nazariya va amaliyot birligi muhiti muhimdir. Shunday muhiti yaratish maqsadida Inklyuziv ta’lim laboratoriyasi tashkil etildi. Laboratoriya universitet qoshida faoliyat yurituvchi “Inklyuziv ta’lim respublika markazi” negizida ochildi. Unda maktabgacha yoshdagi qulog‘iga koxlear implant o‘rnatilgan, autizm sindromli, ruhiy rivojlanishi sustlashgan, aqliy rivojlanishida muammolari mavjud bolalar bilan mashg‘ulotlar olib boriladi.

Eng muhimi, bu yerda mutaxassis yollashga qiynalgan ota-onalar uchun bepul xizmat ko‘rsatiladi. Bunda “ustoz-shogird” yondashuvi asosida markazning ilmiy maslahatchisi tomonidan har bir bola bilan olib boriladigan mashg‘ulotlar uchun “Individual ta’lim” dasturi ishlab chiqiladi. Talabalar shu dastur asosida bolalar bilan ishlaydi. Ota-onalar esa jarayonni kuzatadi, chunki ular uyda bolasi bilan ishini davom ettirishi kerak bo‘ladi.

“Professional piramida”
va “Bolalar sayyorasi” talabalarni
toblaydi

Bugungi kunda universitetimizda “Individual ta’lim — sifat garovi” shioriga asoslangan muhiti yaratishga e’tibor qaratilayotgan. Bunda har bir talaba diagnostikadan o‘tkazilib, ularning imkoniyatlari tahlil etiladi. Ya’ni ularni aniq qilingan bo‘shliqlarni to‘ldirishga yo‘naltirilgan individual rivojlanish dasturi tuziladi.

Bundan tashqari, talabalar uchun loyihalar tashkil qilingan. Masalan, “Chegarasiz imkoniyatlar” loyihasida nogiron talabalar uchun kasbiy rivojlanish muhiti yaratiladi. Bunda ular o‘zlarini pedagogik faoliyatga tayyorlab borishi asosida ertaga uddalay olamanmi, degan shubhalarini asta-sekin yo‘qotadi.

Shuningdek, “Bolalar sayyorasi” hududi tashkil etilayotgan. Bu hududda bolali talaba qizlarning farzandlari bilan mashg‘ulotlar o‘tkaziladi. Darslarni volontyor talabalar olib boradi. Bunda bolalarning nutqi, mantiqiy fikrlashi, jismoniy rivojlanishiga oid muammolari o‘rganiladi, korreksiya ishlari qilinadi. Eng muhimi, talabalar yaratgan metodikalar shu yerda sinovdan o‘tadi.

“Professional piramida”sida “ustoz-shogirdlar” guruhi ish olib boradi. Bunda ustoz — professorga 4 nafar shogird — yosh tadqiqotchilar, tadqiqotchilarga esa 4 nafar magistrant birlashtiriladi. Magistrantlarning har biri 4 nafardan bakalavr bosqichidagi talaba bilan ishlaydi. Inklyuziv ta’limning eng dolzarb muammolari ushbu ilmiy jamoaning faoliyati orqali hal etiladi.

Bu yerda o‘rgangan metodlarni uyda ko‘llash orqali bolalarni maktabga tayyorlashga ham erishiladi.

Universitet tomonidan hamkor tashkilotlar bilan yo‘lga qo‘yilgan “Ochiq osmon ostidagi maktab” loyihasi esa “Temir daftar”ga kirgan oilalar a’zolari, nogironligi bo‘lgan farzandli oilalar, yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar, ota-onalar, yosh oilalarga yaqindan yordam beryapti. Loyihada mahalladagi xotin-qizlar faollari, o‘qituvchi va tarbiyachilar istirohat bog‘lari, dam olish maskanlari, maxsus maktab-internatlarda mashg‘ulotlar olib boradi. Bu orqali nogironligi bo‘lgan bolalarning qobiliyatlari aniqlanib, to‘g‘ri yo‘naltiriladi. Ularning psixologik rivojlanishi uchun qulay imkoniyat va muhit yaratiladi. Shuningdek, oilada mehr-oqibat singari noyob qadriyatlarining ustuvor bo‘lishiga erishiladi.

Natija muhimmi yoki ishtirok?

Bugun talabalarimiz ustozlar maslahatlari asosida oilada ham pedagogik-psixologik muhit yaratish kerakligini anglab yetyapti. Yosh onalar oddiy yumushlarni bajarayotganda ham bolasi bilan ochiq muloqotga kirishishi kerak. Zero, bolalar muloqotga muhtoj. Jonli muloqot esa nogiron bolani ijtimoiylashtirish omilidir. Talabalarimiz mahallalardagi nogiron farzandlari bor oilalarni aniqlab, ular bilan manzilli ish olib boryapti. Dastlab ularni o‘z ukasi, qarindoshi va qo‘shni bolalar bilan o‘yinli mashg‘ulotlar tashkil etishga yo‘naltirildi. So‘ng oilalarga kirib bordik. Quvonarlisi, mahallalar yoshlarimizni ko‘makchilar deb qabul qilmoqda. Ayni paytda Chirchiq shahriining 5 ta mahallasida shogirdlarimiz pedagogik ishlarni yo‘lga qo‘yishga erishdi.

Talaba shogirdlarimiz doim “Natijami, ishtirokmi?” degan savolni beraman. Ular, albatta, natijani ustuvor biladi. Aslida, inklyuziv ta’limda bolalarning ishtiroki muhim. Ularni jarayonga undash kerak. Chunki ular “Men buni uddalaymayman”, degan holda oldinga intilmaydi yoki xato qilishdan qo‘rqqanidan ishtirok etmaydi. Bunda pedagog mahoratini ishga solib, bolaning imkoniyatiga mos topshiriqni berishi va uni faollashtirishi lozim. Biz talabalarimizni aynan shunga o‘rgataymiz. Bu borada “Xato qilishga imkon berib, haqiqatni anglatamiz” shioriga asoslanamiz.

Chunonchi, inklyuziv ta’limda siz kutmagan turli hodisalar ro‘y beradi. Bolalarga ishonch bildirilsa, ularga topshiriqni bajarishda erkinlik berilsa, butun olam kashf etilayotgandek muhit yaratiladi. Ular biror narsani sochib, keyin yig‘ib o‘rganishga moyil. Shuning uchun ota-onalar ham, pedagoglar ham bolalarga beriladigan erkin harakatli muhitning foydasi bo‘lsa borki, zarari yo‘qligini anglashi kerak.

1989-yil. Harbiy xizmatga chaqirilgan yoshlar u paytlar yig‘itlik burchini o‘tash uchun turli mamlakatlarga jo‘natilardi. Ko‘p qatori harbiyga chaqirilgan Iskandar poyezdga chiqib, xizmatga otlanganida oldinda uni nimalar kutayotgani tushiga ham kirmagandi. Navqiron yigit o‘zgacha orzular bilan Rossiyaning olis va chekka manzili Tuvaga harbiy qismga kelganidagina askarlik oddiy hayotdan farq qilishini angladi.

SAXOVAT
ULASHAYOTGAN AYOL

Harbiy hayotga ko‘nikish oson kechmadi. Ayniqsa, bu yerning izzatini moslashtirish uchun metin iroda kerak edi. Oradan olti oy o‘tmay, Iskandar bu yerning tabiatiga ancha moslashdi. Askar shundoqqina o‘rmon atrofida joylashgan qishloqqa ba’zan aylangan chiqardi. Kunlarning birida ovulidagi bolalar bog‘chasi yaqinidan yolg‘iz o‘tib ketayotgan askar tarbiyachi qizning unga termilib turganini ko‘rib qoldi. Do‘kondan kerakli narsasini shoshgancha xarid qilib qaytgan yigit bog‘cha oldida tarbiyachini uchratmadi. Shu-shu, o‘sha nigohni har safar qidiradigan bo‘ldi. Oxir-oqibat tarbiyachi qiz bilan uchrashib, suhbatlashishga qaror qildi. Harbiylarga havasi o‘zgacha tuvalik qiz askarga allaqachon ko‘ngil qo‘yib bo‘lgandi.

Vaqt oliy hakam. Oradan ikki yil ham o‘tib ketdi. Xizmatni yakunlab, ortiga qaytishga chog‘lanarkan, Iskandar Izoldadan ayrilishni xohlamasdi. Kelishuvga ko‘ra, qiz ota-onasi roziligini olib, sevgan yigiti bilan O‘zbekistonga jo‘nadi.

Qamashiga kelin bo‘lib tushgan tuvalik qizning hayoti boshida oson kechmadi. Ammo taqdirga tan berib, bu yerdagi hayotga ko‘nikdi. Turmush o‘rtog‘ining aytganlariga ko‘nib, salkam yigirma yil yashadi. Afsuski, taqdir bitigida ularga farzand ko‘rish baxti nasib etmagandi. Iskandar ham axiri yigirma yillik sabri tugab, Izoldani tashlab, o‘zi boshqaga uylandi, bu yerdan ko‘chib ketdi. Yakka-yolg‘iz, o‘zga yurtida qolgan Izolda turli qarovsiz joylarda yotib, issiq va sovuqda sog‘lig‘idan ayirdi. Yurtiga ketay desa, puli yo‘q. Boz ustiga, o‘zi shu hayotni tanlab, bu yoqlarga kelib qolgan. Endi xur bo‘lib o‘lib ketarkanman-da, degan o‘yda eshikma-eshevik kun kechirib yuraverdi. Ammo bu yurt odamlari ne-ne og‘ir kunlarda qanchadan qancha musofirlarga eshik ochib, borini baham ko‘rib kelganini xayoliga ham keltirmasdi.

Izoldaning ahvolidan xabar topgan mahalla faollari uni shu kunning o‘zidayoq biror tayinli joyga joylashtirish harakatiga tushdi. “Saxovat” uyiga jo‘natmoqchi bo‘lishgandi, afsuski, uning qo‘lida shaxsini tasdiqlovchi biror hujjat yo‘q edi. Shunday bo‘lsa-da, hech ikkilanib o‘tirmasdan, Qamashi tumani markazida bir necha yildan buyon faoliyat



yuritib kelayotgan xususiy “Saxovat” uyiga olib borishdi. Bunday taqdirli insonlarni ko‘p uchratib, o‘rganib qolgan “Saxovat” uyidagilar unga joy berdi.

Yaxshi so‘z, yaxshi sharoitlar ostida Izolda oyoqqa turdi. Sog‘lig‘i tiklanib, allaqachon yaxshiga nisbatan so‘nib bo‘lgan umidi qayta kurtak yozdi. Achchiq qismatini unutib, hayotga bo‘lgan qarashlari o‘zgardi.

Mehr bozorda sotilmaydi

Samarqandda tug‘ilib voyaga yetgan Saodat Hamidova huquqshunos bo‘lish orzusida Toshkentdagi oliygo‘sha o‘qishga kirdi. U yerda ko‘plab kursdoshlari qatori qamashilik qiz bilan ham yaqin dugona bo‘lib qoldi. Keyinchalik aynan shu dugonasining akasiga turmushga chiqib, baxtli hayot kechira boshlaydi.

Bu orada o‘qishni tugatib, bir muddat Qamashi tumanida advokat bo‘lib ishlaydi. Bir oz tajriba orttirgach, tuman ijtimoiy ta’minot bo‘limida faoliyat yuritadi. Shuningdek, bir qator korxonalarda hisobchi, kadrlar bo‘limi boshlig‘i lavozimlarida mehnat qiladi. 1984-yildan tuman ijtimoiy ta’minot bo‘limi boshlig‘i lavozimida ish yuritib boshlaydi.

— Asosiy ishim ijtimoiy ta’minotga oid bo‘lgani bois, turli xarakterdagi, har xil xolatga tushgan insonlar bilan uchrashishga to‘g‘ri kelgan, — deydi Saodat aya Hamidova. — Ayniqsa, kekka, qarovchisi yo‘q, nochor kishilarni ko‘rib, ularga qandaydir yordam

Oramizdagi odamlar



berishga intilganman. Lekin ayol bo‘lsam, nima ham qila olardim, deya kuyinardim. Imkoni bo‘lsa, mehr degan tuyg‘u bozorda sotilsa-yu, olib bersam, derdim. Qo‘limdan kelgancha yaxshilik qilishga, yaxshi gapirishga intildim. Eng yomoni, ularning orasida uysizlari ham uchrardi. Shunday paytda

tibbiyot birlashmasi shifokorlari doim yordamga shay. Har safar biror narsa kerak bo‘ladimi yoki keksalarimizga ko‘makmi, yo‘q deyishmaydi. Yaxshi insonlar har doim yonimda. Hamisha himmat qilmoqchi bo‘lishsa, shu yerga kelishadi. Keksalarning duosini olishadi.



qanday iloj qilishni bilmay qolardim. Uyimga olib borish to‘g‘ri bo‘lmay, tayinli biror manzil esa yo‘q edi. Gohida ba’zilarini “Saxovat” uylariga joylashtirishga to‘g‘ri kelardi. Bu uchun ham ayrim rasmiy hujjatlar, vasiylik degan ishlar borligi bois, oson kechmasdi. Shunda xayolinga tuman markazidan biror bo‘sh joy topib, kichikroq bo‘lsa-da, qarovchisi yo‘q, yolg‘iz keksalar yashaydigan bino qurishni niyat qildim. Boshida bir oz ikkilanib yurdim. Keyin turmush o‘rtog‘imga bu taklifi aytgandim, ma’qullab, menga dalda berdi. Shundan so‘ng 1993-yilda shu ishga bel bog‘ladim.

Dastlab bo‘sh yer topib, loyihasini tayyorlab oldim. Shundan so‘ng ko‘pchilikning taklifiga ko‘ra hisobraqam ochib, homiylik yordamini qabul qila boshladim. Gazeta orqali e’lon bergandim, himmatli insonlar ko‘p ekan, anchagina mablag‘ yig‘ildi. Tezda qurilish ishlari boshlab yubordim. Oradan bir yil o‘tib, barcha ishlarni yakunlab, “Saxovat



uyi” sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazib, ish boshladik.

O‘n o‘rinli “Saxovat” uyi Saodat aya rejalashtirganidek, haqiqiy nochor keksalarga boshpana bo‘ldi. Ularga yetarli imkoniyat yaratib, homiylik asosida xonalarni jihozlab, yashash uchun qulaylik yaratdi. Uning bu ezu tashabbusi nafaqat tumanda, balki viloyatda e’tirof etildi. Faoliyati davomida millat ajratib o‘tirmadi. Qo‘lidan kelgancha muhtojlarga eshik ochib, ularga yordam ko‘lini cho‘zdi.

— Asli tuvalik Izoldani ham olib kelishganida ahvoli g‘oyat achinarli edi, — deydi Saodat aya. — Qolaversa, qo‘lida shaxsini tasdiqlovchi hujjat ham yo‘q edi. Uni shu yerga joylashtirib, alohida parvarishladik. Ancha yaxshi bo‘lib qoldi. Shundan so‘ng, uning yurtiga xat orqali so‘rovnomalar yubordim. Bir oz vaqt o‘tgach, tug‘ilganlik haqidagi guvohnomasini jo‘natishdi. Qarindoshlari bor ekan, ular bilan telefon orqali gaplashishga imkoniyat qilib berdim. Ko‘p bora muloqotlar olib borishgach, uni yurtiga chaqirishdi. Men ham agar kumochchi bo‘lsa, unga yordam berishimni aytdim. Lekin u rozi bo‘lmadi. Uch yil oldin fuqarolik pasporti ham berildi. Ancha yillar farovon umr kechirib, o‘tgan yili vafot etdi. Hozirga qadar yuzga yaqin keksalarga boshpana berdik. Ayni kunda esa o‘n olti nafar qariyamiz umr kechirmoqda.

Bu saxovatli ishini bir o‘zim bajarib kelyapman, demayman. Sababi, ko‘pchilikning yordami katta. Tuman hokimligi, tuman

Gohida nomaqbul farzandlar dastidan qarovsiz qolib ketgan qariylar murojaat qiladi. Odam bolasi qanchalik shafqatsiz bo‘lib qolganiga hayron bo‘laman. Shunday farzandlar bilan iloji boricha yuzma-yuz uchrashishga, hayot bir maromda emasligini, ertaga vaqt o‘tib, shu ko‘yga o‘zi ham tushib qolishi mumkinligini uqtiraman. Ayrimlari tushunib, to‘g‘ri qabul qiladi. Fikri o‘zgaradi. Boshqa bunday qilmasligini aytadi. Ammo ba’zilarga gapirish befoyda. Bu ishidan pushaymon bo‘lib, bosh egib kelganlari ham bor.

Fidoyi onaning muruvvatli ishlari ko‘rgan kishi rahmat aytmasdan qolmaydi. Bugun bu yerda yashayotgan keksalar ham Saodat ayadan mamnun. Qo‘llari doim duoda.

— Barchamizga boshpana bilan birga mehr ham bergan, — deydi “Saxovat” uyi nuroniyalaridan biri. — Taqdiming kutilmagan zarbasi tufayli shu holga tushganimda endi qanday umr kechiraman, degandim. Shukrki, yaxshilar ko‘p ekan. Bugun bu yerda tinch va osuda hayot kechirmoqdaman. Ilohim, Saodat opa kabi insonlar yurtimizda ko‘paysin. Har kuni o‘zi birma-bir ahvolimizni so‘rab chiqadi. Kimgadir shifokor ko‘rigi zarur yoki boshqa biror narsa kerak bo‘lsa, shu zahotiyog‘ ishga kirishadi. Nafaqamizni vaqtida olishimizda, kerakli oziq-ovqatlarni keltirishda ham barcha qulayliklar yaratib bergan. Buning uchun u kishi oldida doim ta’zimdamiz.

Saxovatpesha ayol bu ishlari bilan to‘xtab qolmoqchi emas. Yana qo‘shimcha o‘nta xonadan iborat bino barpo etdi. Inshooting tashqi ta’mir ishlari to‘liq yakuniga yetkazilgach, foydalanishga topshiriladi.

Yaxshidan bog‘ qolar

Ayni paytda Saodat aya yetmish yoshdan oshayotgan bo‘lsa-da, bekor o‘tirishni istamaydi. “Saxovat” uyi rahbari bo‘lish bilan birga Nogironlar jamiyati Qamashi tuman bo‘limi raisi sifatida ham faoliyat olib boradi. Imkoniyati cheklangan kishilarga ko‘mak berib, ularning bandligini ta’minlashda, ijtimoiy yordam berishda bosh-qosh bo‘lib kelmog‘da. Ular “Ishga marhamat” monomarkazlarida kasb-hunar egallab, mehnat qilishga yo‘l ochmog‘da. Bundan tashqari, turli mavzularda o‘z loyihasi bilan grantlar qo‘lga kiritib, savobli amallarni bajarishdan ham to‘xtagani yo‘q.

Yana bir gap. Saodat aya yaqinda bir xayrli ishga qo‘l urdi — o‘z mahallasida bog‘ yaratmog‘da.

— Bog‘ yaratishni boshlaganimga ancha bo‘ldi, — deydi Saodat aya. — Birinchi ekan daraxtlarim tutib ketdi. Yaqinda yana ming tup nihol olib keldim. Tez orada shu joyga ekib chiqamiz. Nasib bo‘lsa, mahallamiz yashillikka burkanadi. Buning uchun farzandlarim, turmush o‘rtog‘im menga madad berib kelmog‘da.

Xalqimizda “Yaxshidan bog‘ qoladi” degan naql bor. Allaqachon yaxshilik urug‘ini sochib, kattagina egulik bog‘ini yaratib qo‘ygan Saodat ayaning ishlari ko‘pchilikka namuna bo‘lishi shubhasiz. Albatta, yurtimizda fidoyilik bog‘bonlari ko‘payib borar ekan, ko‘ngillar shod bo‘lib, umr mazmuni yanada boyiyveradi.

Akbar RAHMONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

